


Rioya qilinishi kerak bo'lgan "Asosiy gigiyena va xavfsizlik holatlari"ning to'rt bandi




① (Dastlabki xom ashyolar nazorati) Ko'rik hisobotini tekshiring va xom ashyo hamda qo'shimcha materiallarni omborda saqlash holatlari yuzasidan o'tkazilgan tekshirishlar dalolatnomasini taqdim eting



② (Suv ko'rigi) Isitilmaydigan oziq-ovqatlar uchun qo'llaniladigan yerosti suvlarni sterilizatsiya va zararsizlantirish ishlarini o'tkazing




③ (Gigiyena nazorati) Ish joyini tozalang va zararsizlantiring hamda ishchilarning shaxsiy gigiyenasini nazorat qiling



④ (Keskin nazorat nuqtalari(CCP)) CCP ni nazorat qiling va ularni yaxshilash bo'yicha ishlarni amalga oshiring

※ HACCP Sertifikatsiyasi birdan ortiq qoidabuzarlik sodir etilishi bilanoq bekor qilinishini yodda tuting!


Xom ashyo va qo'shimcha materiallarni qanday qilib tekshirish kerak



- ✓ Sovutqich va muzlatgichdagi haroratni bir tekisda saqlab turing va ularning tozalik holatini tekshiring



Haroratdagi o'zgarishlarni to'g'irlash yuzasidan choralami qo'llang!




Oziq-ovqatni sinovdan o'tkazish hisoboti

Band nomi	Bug'doy uni
Tekshiruv sanasi	0000yy 00oy 00kun
	0000yy 00oy 00kun

- ✓ Tekshiruv hisobotini oling va xom ashyo hamda qo'shimcha materiallarning omborda saqlanish holatini ko'zdan kechiring



Tekshirishlar hisobotining shonchilikligini tekshiring (tekshiruv o'tgan va qaror qabul qilingan sanavahlar! Tekshiruv qaydlarini taqdim eting!)



- ✓ Xom ashyo va qo'shimcha materiallar bilan ta'minlovchilar kabi subpodryadchilarning gigiyenik sharoitlarini tekshiring



Vaziyatga qarab yoki shaxsan tashrif buyurib yoki hujjatlarni tekshirish orqali ko'rikdan o'tkazing! (HACCP tomonidan sertifikatlashgan faoliyatlar bundan mustasno bo'lishi mumkin)




- ✓ Mahsulotlarni saralash ish joylari va tekshiruv o'tkazish doiralarda tegishli yorug'likni saqlang (540 tk dan ortiq)




O'lchovlarni va baholashni ish olib borilayotgan tegishli joylarda turib o'tkazing, butun faoliyat makonida emas!

Yerosti suvlarning nazorati



- ✓ Suv olish manbalarining ifloslanish xavfidan holi bo'lishini nazorat qiling

! Ifloslanish xavflarini suv olish manbalari atrofida ham o'tkazish zarur! (Hojatxona, oqova va oqova suvlari ob'yekti, otxona va boshqalar)




- ✓ Agar zarur bo'lsa, zararsizlantirish va sterillashtirish jihozlarini o'rning

! Xlorin bilan avtomatik ta'minlovchi jihozni, mikrofil'tr va boshqalarni qo'llang



- ✓ "Ichimlik suvi uchun suv sifati standarti" uchun barcha holatlar yuzasidan tekshiruvlarni yilida birdan ortiq marotaba o'tkazing

! Ichimliklar singari to'g'ridan-to'g'ri qo'llash uchun suyuqliklarning tekshiruvini yilida birdanortiq marotaba o'tkazing



- ✓ Inson tanasi uchun zararli bo'lmagan materiallarni qo'llang va suv havzalariga qulf o'rning

! Tsement materiallari uchun suv izolyatsiyasi va ustini qoplash kabilar qo'llanilishi talab etiladi

Shaxsiy gigiyena va ish joyining tozaligi, dezinfeksiyasining nazorati



- ✓ Ishchilar hamisha gigiyenik toza ustki kiyimlarni, qalpoq, oyoq kiyim va boshqalarni kiyishi zarur.

Shaxsiy aksessuarlar va buyumlar (qo'l soati, uzuklar, mobil telefon, yondirgich va boshqalar) ish jarayonida man etiladi!




- ✓ Ishga kirishishdan avval qo'lingizni yuving, quritib, zararsizlantiring

Qo'lingizni to'liq qurutganingizdan keyingina uni zararsizlantiring



- ✓ O'rnatilgan nazorat rejalariga asosan tozalash va zararsizlantirish ishlarini olib boring

Tozalash ishlarini, zararsizlantirishni qanday o'tkazish kerakligi standartlarini va uning muddatini, mas'ul shaxsni oldindan belgilab oling.



- ✓ Tozalovchi, zararsizlantiruvchi moddalarni qanday to'g'ri qo'llash va saqlashning usullarini aniqlab oling

Dog'larni ketkazgandan keyin zararsizlantirish ishlarini o'tkazing, chunki zararsizlantirish ta'siri do'g'lar (chang, bakteriyavab.) paydobo'lganda zaiflashadi


Tarkibida xlorin bo'lgan zararsizlantiruvchi eritmada konsentratlarni qanday qilib (test qog'oz yordamida) nazorat qilish mumkin?

1



① Aralashtirilgan zararsizlantiruvchi eritmaning bir qismini mos idishga quying

2



② Test qog'ozni eritma ichiga 10-soniyaga botiring.

3



③ Zararsizlantiruvchi eritmada konsentratni o'lchash uchun test qog'ozning o'zgargan rangini chizmadagi rang bilan solishtiring

※ Agar konsentrat tasvirdagi rangga mos kelmasa, konsentratni aniqlash uchun eritmani yana suv bilan aralashiring.



O'lchovda qo'llanilgan eritmani qayta ishlatmang, uni kanalizatsiyaga quyib tashlang